

TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISH VA TASHKIL QILISH

Turdimuratov Bobomurod Ulug'bek o'g'li

Toshkent moliya instituti Buxgalteriya hisobi va audit

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Tijorat banklarining mahsuloti qiymat xarakteriga ega ekanligi, Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi asosan bankning mulki, pul mablag'lari, depozitlar, kreditlar, fondlar, moliyaviy natijalari haqida, Bank faoliyatida pul mablag'larining harakati va ularning manbalari haqidagi ma'lumotlarni yig'ishda buxgalteriya hisobi katta rol o'ynashi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, buxgalteriya, ma'lumot, iqtisodiyot, normativ-huquqiy hujjatlar, bank faoliyati, sub'ekt, o'zgartirish, mahsulot.*

Аннотация: *В данной статье продукт коммерческих банков имеет стоимостной характер, бухгалтерский учет в коммерческих банках в основном собирает информацию об имуществе банка, средствах, депозитах, кредитах, фондах, финансовых результатах, движении средств в деятельности банка и их источниках. Говорят, что бухгалтерский учет играет большую роль в работе.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, бухгалтерский учет, информация, экономика, правовые документы, банковская деятельность, предмет, изменение, продукт.*

Abstract: *In this article, the product of commercial banks has a value character, accounting in commercial banks mainly collects information about the bank's property, funds, deposits, loans, funds, financial results, the movement of funds in the bank's activities and their sources. It is said that accounting plays a big role in the work.*

Key words: *commercial banks, accounting, information, economy, legal documents, banking activity, subject, change, product.*

Ma'lumki, respublika bank tizimida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish bo'yicha asosiy normativ hujjat O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008-yil 3-maydagi 11/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida"gi hisoblanadi.

Lekin, o'tgan davr mobaynida respublika iqtisodiyotida, xususan bank tizimi va buxgalteriya sohasida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida banklar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26 dekabrda O'RQ 360-sonli qonuni bilan Qonunchilik palatasi tomonidan 2013-yil 28-avgustda qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasi Senati tomonidan 2013-yil 12-dekabrda ma'qullangan "O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi" tasdiqlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga ham bir qator jiddiy o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi «Buxgalteriya to'g'risida» gi qonunga ko'ra yuritiladi. Tijorat banklari Markaziy Bankka bo'ysunsa ham, ulardagi hisob yuritish mazkur qonunga ko'ra olib boriladi. Demak, bu hol tijorat banklarining xo'jalik yurituvchi sub'ekt ekanligini ko'rsatadi. Tijorat banklarining mahsuloti qiymat xarakteriga ega va u o'z jalb qilingan to'lov vositalaridan tashkil topadi. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi asosan bankning mulki, pul mablag'lari, depozitlar, kreditlar, fondlar, moliyaviy natijalar to'g'risida va boshqa ma'lumotlar to'g'risida axborot beradi. Tijorat banklari buxgalteriya ma'lumotlaridan foydalangan holda bank faoliyatini boshqarish bilan bog'liq ishlar rejalashtiriladi, chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Har bir tijorat banki o'z hisob siyosatiga ega bo'lishi va unga ko'ra xisob yuritishi belgilangan.

Bank - bu pul muomalasini boshqaruvchi tashkilot bo'lib, u to'lovlar va hisob-kitoblarni tashkil etish, huquqiy va jismoniy shaxslarning hisobvaraqlarini yuritish, ularning pul mablag'larini saqlash, kreditlash bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni amalga oshiradi. Bank faoliyatida pul mablag'larining harakati va ularning manbalari haqidagi ma'lumotlarni yig'ishda buxgalteriya hisobi katta rol o'ynaydi. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalangan holda bankning aktiv va passiv operatsiyalari rejalashtiriladi. Moliyaviy hisobotlarning natijasi bankning moliyaviy holatini ko'rsatadi va bank rahbarlariga bank ishini rivojlantirishda aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishga sharoit yaratadi. Shu qabul qilingan siyosat asosida tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi yaratiladi, bu faoliyat bank xodimlarining kunlik ish jarayonlarida hamda operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishda o'z ifodasini topadi.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari xalq xo'jaligi turli tarmoqlariga qarashli korxonalar va tashkilotlarning buxgalteriya hisobi asoslari bilan deyarli o'xshash. Ular 1996 yil avgustidagi Oliy Majlis sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunda o'z ifodasini topgan. Ushbu qonundan kelib chiqqan holda, banklarda buxgalteriya hisobini yuritishning metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi:

- a) xo'jalik faoliyati haqidagi ma'lumotlarni dastlabki hujjatlarda aks ettirish;
- b) xo'jalik operatsiyalarini, bank mulkini puldagi ifodasini belgilash;
- v) barcha operatsiyalarni ikki yoqlama yozuv asosida guruhlashtirish, bunda yozuvlarni hisobvaraqlar rejasidagi hisobraqamlar asosida olib borish;
- g) hisob-kitob va boshqa operatsiyalar yakunida ma'lum sanaga bank xo'jalik faoliyatiga tavsif berish, ya'ni bank balansini tuzish.

Banklarda buxgalteriya ishini tashkil etish asoslari korxonalar buxgalteriya hisobiga o'xshash bo'lsa-da, ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.